



## RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MAZMUNI, MAQSADI VA DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

**Abdumajitova Shaxrizoda Shuxrat qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti*

**Annotatsiya.** Tezida korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, raqamli transformatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari xalqaro standartlarga kiritish nuqtai nazaridan o'rganiladi. Korrupsiya juda ko'p davlatlarning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan va u iqtisodiy rivojlanishga bevosita tahdid sifatida aniqlangan. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va davlat boshqaruvi tizimlarining raqamlashtirishi jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro huquqiy jihatlarini tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Hozirgi davrda korrupsiya global muammo sifatida tan olinib, unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va huquqiy tartibga solishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirish, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka tatbiq etish va zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish masalalari alohida e'tibor talab etadi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, raqamli transformatsiya, xalqaro standartlar, xalqaro tajriba, xalqaro qonunchilik, korrupsiyani oldini olish.

XXI asrda davlat boshqaruvi tizimining samarali ishlashi va zamonaviy talablarga javob berishi raqamli transformatsiya jarayonlarining to'liq amalga oshirilishiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Raqamli transformatsiya atamasi ostida nafaqat texnologik yangiliklar va dasturiy ta'minot tizimlarini joriy etish, balki davlat institutlarining ishlash tartibini tubdan qayta tashkil etish, fuqarolar bilan muloqot shakl va usullarini yangilash, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar majmuini tushunish lozimdir. Bu jarayon davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish kabi muhim maqsadlarni amalga oshirish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) tizimli ravishda joriy etish va ularni davlat boshqaruvi faoliyatining barcha darajalariga chuqur integratsiya qilish jarayoni sifatida belgilanadi.

Raqamli transformatsiyaning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish jarayonida bir necha asosiy ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalar o'z hissasini qo'shgan bo'lib, ularning eng muhimlari texnologik determinizm nazariyasi, institutsional o'zgarishlar konsepsiyasi va inson-texnologiya o'zaro ta'siri paradigmasidir. Texnologik determinizm yondashuviga ko'ra, raqamli texnologiyalar nafaqat davlat boshqaruvi tizimlarining texnik jihatlarini modernizatsiya qiladi, balki ijtimoiy munosabatlar tuzilishini, davlat va jamiyat



o'rtasidagi aloqa shakl va metodlarini, shuningdek, siyosiy jarayonlarning o'zini ham tubdan o'zgartiradi. Bu yondashuvning tarafdorlari ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalarida fundamental o'zgarishlarning katalizatori vazifasini o'taydi va davlat boshqaruvi tizimini yanada ochiq, shaffof va fuqarolarga javobgar qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Institutsional yondashuvning vakillari esa raqamli transformatsiyani davlat institutlari va boshqaruv tizimlarining uzluksiz modernizatsiyalash jarayoni sifatida ko'rib chiqadilar va bu jarayonda institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini takomillashtirish, boshqaruv jarayonlarida yangi tartib va qoidalarni joriy etish, shuningdek, davlat xodimlarining professional malaka va ko'nikmalarini zamonaviy talablarga moslashtirishning muhim ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun nafaqat texnologik infratuzilmani rivojlantirish, balki davlat institutlarining ichki tashkiliy madaniyatini o'zgartirish, yangi boshqaruv usul va yondashuvlarini qabul qilishga tayyor bo'lish zarur hisoblanadi.

Inson-texnologiya o'zaro ta'siri yondashuvi esa raqamli transformatsiya jarayonida inson omili va texnologiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning hech qachon e'tibordan chetda qoldirish mumkin emasligi haqida ogohlantirib, raqamli tizimlarni loyihalashtirish va joriy etishda foydalanuvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish, ularning raqamli savodxonligi darajasini oshirish, shuningdek, texnologiya va inson o'rtasidagi interfeys sifatini uzluksiz yaxshilashning muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yondashuv bo'yicha, raqamli transformatsiyaning yakuniy muvaffaqiyati texnologik yechimlarning murakkabligi yoki innovatsionligiga emas, balki ularning oddiy fuqarolar, davlat xodimlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qanchalik qulay va tushunarli bo'lishiga bog'liqdir.



Olimlarning ta'kidlashicha, raqamli transformatsiya davlat apparatining samaradorligini oshirish, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatishda shaffoflikni ta'minlash vositasidir. Ular raqamli texnologiyalarni korrupsiyaga qarshi kurashda muhim asbob sifatida ko'rib chiqadilar<sup>ix</sup>. T.A. Polyakova va G.O. Minbaleevning qarashi amaliy jihatdan juda muhimdir, chunki ular raqamli transformatsiyaning aniq natijalariga e'tibor qaratadi. Shaffoflik prinsipi korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi va raqamli texnologiyalar aynan shu tamoyilni amalga oshirishning eng samarali vositasidir. Ma'muriy xarajatlarni kamaytirish ham muhim aspekt, chunki murakkab byurokratik jarayonlar ko'pincha korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali fuqarolar bevosita onlayn platformalar orqali xizmat olishlari mumkin, bu esa davlat xizmatchilari bilan shaxsiy aloqalarni minimallashtiradi va shu orqali "pora berish-olish" imkoniyatini keskin kamaytiradi. Shuningdek, raqamli tizimlar barcha operatsiyalarning raqamli izlarini (digital footprint) saqlab qoladi, bu esa keyinchalik audit va tekshiruvlarni osonlashtiradi.

Raqamli transformatsiyaning asosiy xususiyatlari orasida komplekslik prinsipi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon davlatning barcha faoliyat sohalarini — ijro etuvchi



hokimiyat organlaridan tortib to sud-huquq tizimi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarigacha — qamrab oladi va ularning o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlashini ta'minlaydi. Uzluksizlik xususiyati raqamli transformatsiyani bir martalik loyiha emas, balki doimiy rivojlanish va takomillashtirishni talab qiladigan uzluksiz jarayon ekanligini ko'rsatadi, chunki texnologiyalar tez rivojlanib borishi va yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi davlat tizimlarini ham doimiy ravishda yangilab turish zaruriyatini vujudga keltiradi. Adaptivlik xususiyati esa raqamli tizimlarning o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga tezkor moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligini anglatadi, bu esa texnologik yechimlarni loyihalashtirish bosqichida kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan hisobga olishni talab qiladi. Integratsiyalashuv xususiyati barcha davlat tizim va platformalarining bir-biri bilan uzviy bog'lanishi va ma'lumotlar almashish imkoniyatiga ega bo'lishini nazarda tutadi, bu esa fuqarolarga turli davlat xizmatlaridan foydalanishda bir yoqlama (Single-Sign-On) prinsipi asosida qulay va tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi. Ushbu xususiyatlar majmuasi raqamli transformatsiyani oddiy texnologik modernizatsiyadan farqlovchi asosiy belgilar hisoblanadi va uning davlat boshqaruvi tizimidagi o'rnini belgilaydi.

Raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadlari orasida davlat xizmatlarining sifat va samaradorligini oshirish birinchi o'rinda turadi, bu maqsad elektronik hukumat (e-Government) tizimlarini joriy etish orqali davlat organlarining fuqarolar bilan muloqot jarayonlarini soddalashtirish, tezlashtirish va zamonaviylashtirish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni minimal darajaga tushirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda elektronik hujjat aylanishi tizimlarini joriy etish, davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashish tizimlarini yaratish va fuqarolarga 24/7 rejimida xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini ta'minlash kabi vazifalar hal qilinadi. Shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash maqsadi davlat faoliyatini ommaviy nazorat ostiga qo'yish, fuqarolarning davlat organlari faoliyati haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga kirish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, davlat qarorlari qabul qilish jarayonlarida fuqarolar ishtiroki darajasini oshirish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi<sup>ix</sup>. Raqamli platformalar orqali davlat byudjeti, davlat xaridlari, vazirliklar va idoralar faoliyati, qonunchilik jarayonlari va boshqa muhim ma'lumotlarni ommaga ochiq qilish, shuningdek, fuqarolarga davlat qarorlari loyihalariga o'z takliflarini kiritish imkoniyatlarini berish orqali demokratik boshqaruv tamoyillarini mustahkamlash va davlat-jamiyat munosabatlarida ishonch darajasini oshirish amalga oshiriladi. Samaradorlik va iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlash maqsadi davlat boshqaruvi jarayonlarini avtomatlashtirish va optimizatsiya qilish orqali vaqt, inson resurslari va moliyaviy mablag'larni tejash, davlat xodimlarining ish unumdorligini oshirish, takroriy va rutiniy vazifalarni texnologiya zimmasiga yuklash orqali xodimlarning intellektual salohiyatini yanada murakkab va ijodiy vazifalar uchun yo'naltirish imkoniyatlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu maqsad doirasida hujjatlarni tayyorlash va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish,





ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish, hisobot tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish va davlat xarajatlarini optimallashtirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayoni 2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan keng ko'lamli islohotlar dasturi doirasida tizimli ravishda amalga oshirilayotgan bo'lib, bu jarayonning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari "Raqamli O'zbekiston-2030" milliy strategiyasida batafsil belgilangan<sup>ix</sup>. Ushbu strategiya davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini modernizatsiyalash, raqamli savodxonlikni oshirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Davlatimiz rahbari o'z chiqishlarida ta'kidlaganidek, korrupsiya – islohotlar yo'lida eng katta to'siqlardan biridir. Bu fikr bugungi O'zbekistonning taraqqiyot yo'lida qanday muammolarga duch kelayotganini ham, ularni bartaraf etish uchun qanchalik qat'iy choralar ko'rilayotganini ham yaqqol ko'rsatadi. So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan qonunlar va yaratilgan yangi tizimlar bu boradagi davlat siyosatining izchilligini tasdiqlaydi<sup>ix</sup>. Parlament palatalarida maxsus qo'mitalarning tashkil etilishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi hamda Agentlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi — bu sohada markazlashgan va tizimli yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi. Eng e'tiborlisi, korrupsiya masalasini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish, ochiq va shaffof muhit yaratish bo'yicha amaliy qadamlar tashlanmoqda.

Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi kurash faqat qonuniy mexanizmlar orqali emas, balki fuqarolik faolligi va ommaviy axborot vositalari ishtiroki orqali ham samarali kechadi. So'nggi yillarda jurnalistlar va blogerlarning bu boradagi faol roli, ochiq manbalar orqali davlat xarajatlari va qarorlarini tahlil qilish imkoniyati oshgani – jamiyatda mas'uliyat hissini kuchaytirmoqda. Shuningdek, korrupsiyaning ildiz omillariga qarshi kurashish amalda natija bermoqda. Masalan, yer ajratish jarayonining hokim qaroridan auksion tizimiga o'tkazilishi – mahalliy darajadagi subyektiv qarorlarni kamaytirib, tizimni xalqchil holga keltirdi. Xuddi shunday, "Shaffof qurilish" dasturi sohada moliyaviy nazoratni mustahkamladi, natijada turli noqonuniy sxemalarning oldi olina boshladi. Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashda yuridik mexanizmlar bilan bir qatorda inson omili, jamoatchilik nazorati va axloqiy qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda davlat bilan jamiyat o'rtasida hamkorlik kuchaysa, korrupsiyaga qarshi immunitet yanada mustahkamlanadi, degan fikrdamiz.